

# Suvni zararsizlantirish uchun xlor tabletkalar ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi

// 16.09.2015

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/suvni-zararsizlantirish-uchun-hlor-tabletkalar-ishlab-chiqarish-tehnologiyasi-yaratildi>

"Navoiyazot" AJda suvni zararsizlantirish uchun xlor tabletkalar ishlab chiqarish texnologiyasi yaratildi va ularni ishlab chiqarish uchun sanoat - tajriba qurilmasi yasaldi. Mahsulotning sinov partiyasi ishlab chiqarildi va hozirda tegishli normativ hujjatlar va tavsiyanomalar tayyorlash ustida ish olib borilmoqda.

Xlor tabletkalaridan ichish va texnik suvni zararasizlantirish, suzish havzalarni, sanitar-taxnik uskunalarni tozalash uchun foydalanish mumkin.